



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA KREATIV FIKRLASH

*Yo'ldasheva Naimaxon Ubaydullo qizi*

*Qo'qon davlat universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** maqolada boshlang'ich sinf o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish jarayoni, o'qitishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, ularda boradigan jarayonlar va o'zgarishlarning mazmun mohiyatini anglash, mazkur o'quv fanlari mazmunidagi umumiy va xususiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish va amaliyotga taqbiq etish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashini shakllantirish masalalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, ta'lim, maktab, dars, o'quvchilar.

**Аннотация.** В статье учебный процесс, основанный на интеграции предметов, особенности реализации межпредметной интеграции в обучении, понимание содержания процессов и происходящих в них изменений, общего и индивидуального содержания этих учебных предметов. . содержание в целом. описываются проблемы наблюдения научной картины мира у студентов через ее воображение и применение на практике.

**Ключевые слова:** вспомогательное образование, интеграция, межпредметность, образование, школа, урок, учащиеся.

**Abstract.** In the article, the educational process based on the integration of subjects, the specific features of the implementation of interdisciplinary integration in teaching, the understanding of the content of the processes and changes that occur



*in them, the general and individual content of these educational subjects. contents as a whole. the problems of observing the scientific world view of the students through imagining and applying it to practice are described.*

**Key words:** *auxiliary education, integration, interdisciplinarity, education, school, lesson, students.*

## KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim sohasida juda ko'plab o'zgarishlar va innovatsiyalar kiritilmoqda. Bu o'z o'zida ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy sababi hisoblanadi. Shunday yangiliklardan biri bu fanlararo integratsiyalashdir. So'nggi paytlarda boshlang'ich maktab ta'limda fanlararo yondashuv asosiy e'tiborga sazovor bo'ldi. Jacobs. H. fanlararo ta'limni "markaziy mavzuni, masalani, muammoni, yoki tajribani o'rganish uchun bir nechta fanlardan metodologiya va tilni ongli ravishda qo'llaydigan bilim nuqtai nazari va o'quv dasturi yondashuvi" deb ta'riflaydi. Fanlararo integratsiyada, doimiy o'rganishni davom ettirish uchun o'qituvchilar mavzular, mazmun va faoliyatini bo'g'lash uchun ikki yoki undan ortiq fanlarni birlashtiradi. Boshlang'ich ta'limda fanlarni o'zaro bir biriga bog'lashda asosiy maqsad o'quvchilarning qiziqishini va dars samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz",-degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda darslarni bir biri bilan aloqadorlikda tashkil etish bu hozirgi zamon talabi hisoblandi, bu o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini va amaliy bilimlarini ham rivojlantiradi. L.N. Baxareva o'zining "Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash» maqolasida «Integratsiya -differensiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish va



bog‘lash jarayoni bo‘lib. Yangi, butun, yaxlit bilimlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko‘rinishdir» -deb ta’kidlaydi.«Intergratsiya» so‘zi lotincha integratio-tiklash, to‘ldirish, bog‘lash «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan.

Integratsiyalashgan darslar –interaktiv ta’lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta’lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur qilish, misollarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishni shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko‘rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy-ommabop maqolalar, biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazaridan va boshqalar. Boshlang‘ich ta’limda bir nechta fanlardan bitta o‘qituvchi dars o‘tadi va bu o‘z o‘zida bu o‘qituvchi o‘zining fanlarini albatta bog‘lab o‘tadi. Boshlang‘ich ta’limda ona tili, matematika, texnologiya, tabiiy fan, ingliz tili va o‘qish fanlari bilan integratsiyalash mumkin. Masalan matematika fanini oladigan bo‘lsak, bu fanni o‘qish, ingliz tili, tasviriy san’at va texnologiya fani bilan bog‘lash mumkin. Tartib raqamlarini o‘quvchilarga ketma-ket shaklda o‘qitishi yoki ingliz tilida sonlarni aytirishi. Bundan tashqari geometrik shakllarni chizishlari, turli rangli qog‘ozlardan foydalanib ularni qirqib yopishtirishi mumkin. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya imkonlari chegaralangan. Bolalar boshlang‘ich ta’limda juda ko‘p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to‘g‘risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to‘ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o‘qituvchi bir xillikdan qochishi va rang -barang shakl va usullarda dars o‘tishi talab etiladi. O‘qituvchi integratsiyalashgan darsda quyidagilarni e’tiborga olishi kerak: darsning maqsadini, yangi ma’lumot manbalarini, har xil fanlarning



ma'lumotlarini birlashtirish, bilimlarning funksional yo'nalishini, fan mazmunini qayta ishlash, eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo'lgan elementlar orasida aloqalar yaratish. Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim maqsadidan biri, o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik ta'minlashdan iborat. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning charchog'ini va zerikib qolishini oldini oladi, ya'ni o'quvchilarni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazadi. Bundan tashqari o'quvchilarni ziyraklikni, hushyorlikka, intiluvchanlikka o'rgatib boradi. O'qituvchi boshlang'ich ta'limda integratsiyalashda turli xil ko'rgazmalardan, videorolik va tarqatmali materiallardan foydalanishi mumkin.<sup>1</sup>

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rustili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikma va malakasini rivojlantirishda o'quv jarayonida fanlararo integratsiya mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida hosil qilingan tasavvur va bilimlarni umumlashtirgan holda o'quvchilarda aniq fanlar turkumdagi o'quv jarayonida

---

<sup>1</sup> Жукова Т.Н. Интеграционные тенденции в обучении грамоте// Начальная школа. - 2001. - № 9. - С. 37-40.



fanlararo integratsiya asosida muayyan bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi va quyidagicha xulosalash mumkin.

1. O'quv jarayonida fanlararo integratsiya va kreativ fikrlash hodisasi pedagogik-didaktik, serqirra va murakkab jarayon.

2. Fanlararo integratsiyaning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o'zaro bog'langan holda rivojlanishi taniqli olimlar tomonidan ochib berilgan. Ular o'quv jarayonida fanlararo integratsiya qonuniyatlari metodologik-didaktik tamoyillar asosida etakchi didaktik hodisa ekanligini ta'kidlab o'tiladi.

3. Fanlararo integratsiya-ta'lim jarayoni va uning barcha o'qitish shakllarida didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi hodisa.

4. O'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashda mazmunan bir-biriga yaqin o'quv fanlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtiriladi.

5. O'rganilayotgan materialning ilmiy va amaliy darajasini oshirishga harakat qilinadi.

6. O'zaro aloqador bilimlar didaktik birlik sifatida yaxlitlashtiriladi.

7. O'quvchilar ongida barqaror va tizimlashtirilgan bilimlarni singdirish yo'llari ko'rsatiladi.

8. Umumlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan vositalar belgilab beriladi.<sup>2</sup>

O'quv jarayonida fanlararo integratsiya ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'quv materialini mazmuni, o'qitish metodlari va texnik vositalar ushbu jarayonga muvofiq holda tanlanadi.

---

<sup>2</sup> Безрукова В.С. Теория педагогической интеграции как методологическое знание/ В.С.Безрукова// Интеграционные процессы в педагогической теории и практике: сборник науч. трудов/ Отв.ред. В.С.Безрукова. -Свердловск: СИПИ, 1991.- Вып. 2. - с.5-13.



Kreativlik (lot , ing. "create " - yaratish, "creative" - yaratuvchi , ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarashga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik sifatlarini amalga oshirishda jamoaning o'rni beqiyos. Bunda o'qituvchi o'quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarimng huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhini tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalga oshirsa ko'zlagan maqsadga erishiladi.

Shu orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisida dars jayonida kreativ sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llaridan foydalansa maqsadlidir.

1. O'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o'quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur so'zlarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Suvning tabiatda aylanish hodisasini ta'riflab bering o'rniga yog'inlarning (yomg'ir, qor, shudring, do'l va boshqalar) paydo bo'lishi algoritmini(ketma- ketligini) tuzib chiqing. Bunda o'qituvchi har bir jarayonning " bog'liqlikni topishi , " fikrni mantiqan bayon eting", " tasavvur qiling " kabi fikrlardan foydalanish orqali unda kreativ fikrlash ko'nikmasi namoyon bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalansa oldiqa qo'ygan maqsadga erishadi.

3. O'quvchilarda muammoni yechish va innovatsiyon g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ va ijodiy fikrlashga urg'u berishi lozim. Suvning tabiatda aylanishi va yog'inlarning paydo bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlikni topish" Topshiriqni bajarar ekan, o'quvchilar tabiatda suvning aylanishiu va yog'inlarning paydo bo'lishi



tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qilib, xulosaga keladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tamonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta‘limni integratsiyalash fikri xalq ta‘limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta‘limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba‘zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta‘limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta‘limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog‘liqlikdir. Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va



tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o'rta maktablarining katta sinflarida o'z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi "Yerni o'rganish" fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan "Fuqaro tarbiyasi" deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq. Ta'limning keyingi pog'onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Y.M.Kolegin va O.L.Aleksenko integratsiyaning salbiy omillarini ko'rsatib beradilar: o'quv predmetlarining chegaralangan soni - olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin. Juda muhim bo'lgan o'qish, yozish va sanoq ko'nikmalarini shakllantirish zarurati. Bu narsalar xuddi fanlarga bo'linib o'qitishni talab qiladiganga o'xshaydi. Lekin o'qish va matematikani o'qitishning an'anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda





o'qish fan sifatida o'z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo'yicha materiallarni oladi. Matematika, arifmetika, algebraik va geometrik materiallarni o'z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko'nikmalar hosil qilishga halaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy va ona tili savodxonligi fanlarini fanlararo bog'lab o'qitishda o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo integratsiyaning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda yangicha yondashuv hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o'zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo'naltiradi. Integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yishda asosan: ona tili savodxonligi, o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, musiqa va tasviriy san'at kabi o'quv fanlari yordamida har tomonlama mukammal takomillashtirish mumkin. Bu esa o'quvchi shaxsini emotsional va axloqiy rivojiga, unda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fanlararo integratsiyani shakllantirishda aqliy faoliyatning rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega. Aqliy faoliyatni rivojlantirishda boshlang'ich ta'lim muhim o'rin tutadi, chunki xuddi shu davrda shaxs uning qiziqishlari, moyilliklari shakllanishi uchun poydevor yaratila boshlanadi Jamiyat uchun mustaqil tanqidiy fikrlay oladigan ijodkor shaxslarga talab hozirgi kunda pedagogikaning dolzarb muammosi bo'lib turibdi.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, fanlarning o'zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, tabiiy fanlar turkumdagi fanlarni o'qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarur. O'quvchilarga taqdim etiladigan bilim, tushuncha va hosil qilinadigan malaka, ko'nikma va kompetensiyalarni umumlashgan mazmuniga ega bo'ladi. O'quv jarayonida fanlararo integratsiyani takomillashtirish o'quvchilarga o'zaro bog'langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.



Shuningdek, o'quv fanlarini fanlararo integratsiya asosida o'qitish shartlari quyidagilar:

- turli o'quv fanlarida ko'rib chiqiladigan obyektlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish;
- turdosh fanlar orasidagi aloqadorlikni tashkil etish;
- tadqiqot usullari va o'quvchilarning amaliy faoliyatlari orasidagi aloqadorlikni yuzaga keltirish;
- psixologik-pedagogik va falsafiy bilimlar hamda ta'lim-tarbiyaning metodik jihatlari, uslublari orasidagi aloqadorlikni tashkil etish.<sup>3</sup>

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko'rish muhimdir. Boshlang'ich maktablarda fanlararo aloqadorlikni tashkil etuvchi asosiy shaxs bu o'qituvchi hisoblanadi. Chunki u o'quvchilarga yozishni, o'qishni, arifmetikani va har bir elementar tushunchalar haqida asosiy va boshlang'ich tushunchani o'rgatadi. Shu paytgacha asosan nazariy bilimlarga e'tibor qaratilgan bo'lsa, endilikda fanlarni integratsiyalash orqali o'quvchilarga ham nazariy, ham amaliy bilimlarni teng ravishda berib borishadi. Bu o'quvchilarning irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va hamkorlik qilishni ham o'rgatadi. Shuningdek, Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

---

<sup>3</sup> Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Ilm Ziyo", 2009. -192 b.



Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitishning vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimov Sh.S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya. Monografiya. -Toshkent. Navro'z, 2014. - 120 b.
2. Берулава М.Н.Интеграция содержания образования М.Н.Берулава. - М.: Педагогика, Бийск: Науч.-изд. центр БигПИ, 1993. С.-113-115.
3. Безрукова В.С. Теория педагогической интеграции как методологическое знание/ В.С.Безрукова// Интеграционные процессы в педагогической теории и практике: сборник науч. трудов/ Отв.ред. В.С.Безрукова. -Свердловск: СИПИ, 1991.- Вып. 2. - с.5-13.
4. Жукова Т.Н. Интеграционные тенденции в обучении грамоте// Начальная школа. - 2001. - № 9. - С. 37-40.
5. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilaning kommunikativ kompetentliligini shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., diss... avtoref.- Namangan, 2019. - 48 b.
6. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Ilm Ziyo", 2009. - 192 b.